



MAHALLIYLASHTIRISH SIYOSATINING SANOATNI RIVOJLANTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI

Egamberdiyev Shavkatbek

Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

e-mail: shavkatbekegamberdiyev79@gmail.com

Yusupova Dilnavo Nurbek qizi

Farg‘ona davlat texnika universiteti

“Iqtisodiyot” yo‘nalishi 2-kurs talabasi

e-mail: dilnavoxon.yusupova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda iqtisodiyot oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri - aholi bandligini ta'minlash muammosi chuqur tahlil qilinadi. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarida ish o‘rinlari yetishmasligi, ayrim hududlarda ishsizlik darajasining yuqoriligi va mehnat bozoridagi nomutanosibliklar muhim muammo sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada mamlakatimizda ishsiz aholi soni va bandlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha mavjud statistik ma’lumotlar tahlil qilinib, ushbu muammolarning asosiy sabablari ochib beriladi. Shu bilan birga, sanoatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etayotgan mahalliy lashtirish siyosati aholi bandligini oshirishning samarali vositalaridan biri sifatida yoritiladi. Mahalliy xomashyo va resurslardan foydalanish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: mahalliy lashtirish siyosati, sanoatni rivojlantirish, aholi bandligi, ishsizlik darajasi, mehnat bozori, yangi ish o‘rinlari, hududiy iqtisodiy rivojlanish.



Kirish.

Bugungi globallashuv va iqtisodiy transformatsiya sharoitida aholi bandligini ta'minlash masalasi deyarli barcha davlatlar uchun ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda mehnat bozorini barqarorlashtirish, ishsizlik darajasini pasaytirish va yangi ish o'rinlari yaratish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish orqali barqaror bandlikni ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda mahalliyashtirish siyosati iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqaroning mehnat qilish, erkin kasb tanlash va ishsizlikdan himoyalanih huquqi kafolatlangan bo'lib, davlat zimmasiga aholi bandligini ta'minlash bo'yicha zarur shart-sharoitlarni yaratish majburiyati yuklatilgan [1]. Ushbu konstitutsiyaviy normalar asosida bandlik sohasini tartibga soluvchi qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 2024-yil 27-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi O'RQ-967 son qonuni mehnat bozorini tartibga solish, ishsizlikni kamaytirish, aholini ish bilan ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan [2]. Ushbu qonunda bandlikni oshirishda investitsiya, sanoat va tadbirkorlik siyosati bilan uzviy bog'liq yondashuv muhim ahamiyatga ega ekani belgilangan.

Mamlakatda mehnat bozorining hozirgi holati tahlili shuni ko'rsatadiki, bandlik masalasi hali ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Milliy statistika ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda iqtisodiy faol aholi soni yil sayin oshib bormoqda, biroq ishchi kuchi taklifi bilan ish o'rinlari o'rtasidagi nomutanosiblik ayrim hududlarda ishsizlik darajasining yuqori bo'lishiga sabab bo'lmoqda. So'nggi yillarda rasmiy ishsizlik darajasi o'rtacha 6-7 foiz atrofida shakllangan bo'lib, yoshlar va ayollar bandligi masalasi alohida e'tibor talab etmoqda. Bu holat mehnat



bozorida barqaror va uzoq muddatli ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur sharoitda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va ishlab chiqarishni kengaytirish orqali bandlik muammosini hal etish eng samarali yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mahalliyashtirish siyosati sanoat rivoji bilan bir qatorda yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini beruvchi muhim mexanizm sifatida qaralmoqda. Mahalliyashtirish siyosatining asosiy mazmuni ishlab chiqarishda mahalliy xomashyo va resurslardan keng foydalanish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda ishlab chiqarish kooperatsiyasini kuchaytirishdan iboratdir. Bu esa ichki bozorni rivojlantirish bilan birga, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiladi. Davlat tomonidan mahalliyashtirish siyosatini qo‘llab-quvvatlash borasida qator dasturlar va qarorlar qabul qilingan bo‘lib, ularning amaliy natijalari sanoat ishlab chiqarishi va bandlik ko‘rsatkichlarida o‘z aksini topmoqda. Jumladan, mahalliyashtirish dasturlari doirasida yuzlab sanoat loyihalari amalga oshirilgan va minglab yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Bu esa mahalliyashtirish siyosati nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki aholi bandligini ta‘minlashda ham muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi mehnat munosabatlarini zamonaviy talablar asosida tartibga solib, ish beruvchi va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarda huquqiy kafolatlarni mustahkamladi [3]. Ushbu huquqiy asoslar sanoat korxonalarida mehnat sharoitlarini yaxshilash, ish o‘rinlarining barqarorligini ta‘minlash va bandlik sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Aholi bandligi va sanoatni rivojlantirish masalalari iqtisodiy tadqiqotlarda uzoq yillardan buyon dolzarb mavzu bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish siyosati orqali iqtisodiy o‘sishga erishish va yangi ish o‘rinlari yaratish xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan alohida o‘rganilgan. Xorijiy



adabiyotlarda mahalliyashtirish siyosati, asosan, import o'rnini bosish, milliy sanoatni qo'llab-quvvatlash va mehnat bozorida barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida talqin qilinadi. Masalan, Stella Tsani, Chrysoula Chitou va Indra Overland "Local content policies: Knowledge stock and future directions for research and policy making in view of the sustainability agenda" nomli maqolasida mahalliy kontent siyosatlari global siyosat va barqaror rivojlanish (SDG) maqsadlari bilan qanday bog'liq ekanini tahlil qiladilar [4]. Tadqiqot natijalarida mahalliyashtirish siyosati orqali ish o'rinlari yaratish, sanoatni rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlari aniq ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, ularning ishi global adabiyotda mahalliy kontent siyosati samaradorligini o'lchash va yangi tadqiqot yo'nalishlarini belgilashda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham sanoat sektorining bandlikdagi ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ishsizlik darajasi past ekani qayd etilgan. Ushbu tadqiqotlarda ishlab chiqarish kooperatsiyasi, mahalliy resurslardan foydalanish va kichik sanoat korxonalarini rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlari alohida ta'kidlanadi. Shuningdek, OECD va UNIDO tadqiqotlarida mahalliy kontent siyosatlari ishlab chiqarish tarmoqlarida texnologik transfer va ishchi kuchini jalb qilishning samarali mexanizmi sifatida ko'rsatilgan.

Mahalliy olimlarimiz ham ushbu mavzuda faol izlanishlar olib bormoqdalar. Masalan, D. Mengqobilov O'zbekistonda mahalliyashtirish siyosatini, xususan sanoat va ishlab chiqarish tarmoqlarida lokalizatsiyani rivojlantirishni tahlil qilgan. U o'z ishida mahalliyashtirish jarayonlarini sanoatning modernizatsiya va diversifikatsiya yo'nalishlari bilan bog'lab, ularning bandlikni oshirishdagi rolini ko'rsatadi [5]. Shu bilan birga, R.T.Xudayberganova, A.R. Adamboyev va G.B.Sharipova O'zbekiston sanoatini mahalliyashtirish, modernizatsiya va diversifikatsiyalashning hududiy jihatlarini o'rganib, bandlik va mehnat resurslarining tarmoqlar kesimidagi ta'sirini tahlil qilgan [6]. Ularning tadqiqotlari



mahalliyalashtirish siyosatining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini hududiy nuqtai nazardan baholash imkonini beradi. Shuningdek, Bahriddinov Viqorjon mahalla institutlarining bandlikni ta'minlashdagi rolini o'rganib [7], hududiy darajada aholi bandligini oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan. Uning izlanishlari, sanoat bilan bevosita bog'liq bo'lmasa-da, bandlik masalasini hududiy va ijtimoiy mexanizmlar bilan qanday hal qilish mumkinligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda mahalliyalashtirish siyosatining sanoatni rivojlantirish va aholi bandligini oshirishdagi o'rnini o'rganish uchun bir nechta metodlardan foydalangan. Birinchi bosqichda adabiyotlar tahlili usuli qo'llanildi. Xorijiy olimlar Stella Tsani, Chrysoula Chitou va Indra Overlandning mahalliy kontent siyosatiga oid ishlari, shuningdek Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti tadqiqotlari o'rganildi. Shu bilan birga, O'zbekistonlik olimlar D.Mengqobilov, R.T.Xudayberganova va boshqalarning mahalliyalashtirish va sanoat rivoji bo'yicha ilmiy ishlari tahlil qilindi. Bu usul mavzu bo'yicha ilmiy asoslangan tushunchalarni shakllantirishga xizmat qildi. Ikkinchi bosqichda normativ-huquqiy tahlil ishlatildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonun va Mehnat kodeksi asosida mahalliyalashtirish siyosatining ish o'rinlarini yaratish va bandlikni oshirishdagi mexanizmlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar.

O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorini rivojlantirish va aholi bandligini oshirish bo'yicha rasmiy statistika so'nggi yillarda ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatmoqda. Joriy 2025-yilning III choragi yakunlariga ko'ra, mamlakatda ishsizlik darajasi 4,9 % ni tashkil etgan, bu 2024-yilga nisbatan 0,8 foiz punktga pasayganligi rasmiy manbalarda qayd etilgan. Prezident va hukumat tomonidan olib borilgan bandlik siyosati, jumladan mehnat bozorini modernizatsiya qilish, rasmiy ish o'rinlarini yaratish va mahalliyalashtirish siyosatini qo'llab-quvvatlash natijasida



mehnat resurslari soni ham o'sdi. Mehnat resurslariga kiruvchi fuqaro soni 20,35 million nafar bo'lib, shu davrda iqtisodiy faol aholi 15,57 million nafarni tashkil etadi. Band aholi soni esa 14,81 million nafarga yetdi.

Rasmiy statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, shuningdek 4,45 million nafar kishi daromadli mehnat bilan ta'minlangan. Ulardan 1,29 million qishloq xo'jaligida, 2,74 million xizmat ko'rsatish sohasida, 172,3 ming qurilishda va 256,2 ming investitsiya loyihalarida mehnat qilmoqda. Bu raqamlar mahalliy lashtirish siyosati va davlat bandlikni mustahkamlash bo'yicha qabul qilgan chora-tadbirlari masalan, yangi korxonalarni qo'llab-quvvatlash, kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish, shuningdek, rasmiy ish joylarini ko'paytirish orqali natijaga erishilayotganini ko'rsatadi. Rasmiy manbalarda qayd etilishicha, so'nggi yillar davomida mehnat bozoridagi strukturaviy o'zgarishlar bu ijobiy tendensiyaga hissa qo'shgan. Shu bilan birga, norasmiy mehnat bozoridagi ulush va xorijda ishlayotgan fuqarolar soni kabi komponentlar ham mehnat bozorini to'liq ko'rish imkonini beradi. Masalan, statistik ma'lumotlarda norasmiy sektor ishchilari hali ham aholi bandligining muhim qismi bo'lib qolayotgani qayd etiladi, bu esa rasmiy bandlikni yanada oshirish choralari zaruratini ko'rsatadi. Umuman olganda, rasmiy manbalar orqali tasdiqlanishicha, O'zbekiston mehnat bozorining holati so'nggi yillarda yaxshilangan, ishsizlik darajasi pasaygan va yangi ish o'rinlari yaratish orqali aholi keng qatlamlari uchun bandlik imkoniyatlari oshgan.

Statistik ko'rsatkichlar bandlik va ishsizlik bo'yicha aniq tendensiyalarni ochib beradi. 2025-yilning uchinchi choragidagi rasmiy statistika O'zbekistonning ishsizlik darajasi 4,9% ekanini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 0,8 foiz punktga kamaygan bo'lib, mamlakat Mehnat va kambag'allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlariga asoslanadi. Shu statistik davrda mehnat resurslari soni 20,35 million, iqtisodiy faol aholi esa 15,57 million ga yetdi. Ularning 14,81 million nafari band bo'lib, ular orasida rasmiy sektorda ishlovchi 8,58 million kishi mavjud,



bu sektor bo'yicha ish o'rinlari oldingi yilga qaraganda 17 % ga ko'payganini ko'rsatadi.

Norasmiy sektor esa 4,38 million nafar ishchi kuchini o'z ichiga oladi. Ushbu raqam norasmiy ish o'rinlarining kamayayotganini bildirsa-da, bu sektor hanuz muhimligini saqlab qolmoqda. Shu bilan birga, 1,86 million nafar O'zbekiston fuqarosi xorijda mehnat faoliyati bilan shug'ullanmoqda. Statistik ma'lumotlarda bandlikning soha bo'yicha taqsimoti ham aniq ko'rinadi: 2025-yilda jami 4,45 million nafar fuqaro daromadli mehnat bilan ta'minlangan, ulardan 2,74 million kishisi xizmat ko'rsatish sohasida, 1,29 million qishloq xo'jaligida, 172,3 ming qurilishda, 256,2 ming esa investitsiya loyihalarida ish bilan ta'minlangan. Qiyosiy statistik tartibda, 2024-yilda O'zbekistonda rasmiy ishsizlik darajasi taxminan 5,8 % bo'lgan, bu 2024-yilning boshiga nisbatan sezilarli darajada kamaygan. Ushbu statistik ma'lumotlarning umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston mehnat bozori oxirgi yillarda rasmiy ravishda ko'proq ish o'rinlari yaratmoqda, bandlik darajasi oshmoqda va ishsizlik past darajaga tushmoqda.

O'zbekiston mehnat bozoridagi statistik o'zgarishlarning asosiy sababi davlat siyosati, jumladan bandlikni oshirish va sanoatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlardir. Bu chora-tadbirlar mahalliyashtirish siyosati bilan uzviy bog'liq bo'lib, sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida yangi ish o'rinlarini yaratishga katta hissa qo'shadi. Masalan, rasmiy statistika ko'rsatmoqda: xizmat ko'rsatish sohasida 2,74 million, qishloq xo'jaligida 1,29 million va investitsiya loyihalarida 256,2 ming yangi daromadli ish o'rinlari yaratilgan. Bu ish o'rinlarining ko'pligi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan sanoat va xizmat tarmoqlariga sarmoya jalb qilish bilan bog'liq. Shu bilan birga, ishsizlik darajasining pasayishi ham 5,8 % dan 4,9 % gacha tushishi iqtisodiy faollikning ortishi va formal sektor ish joylarining ko'payishidan kelib chiqadi. Rasmiy ish o'rinlariga ega bo'lganlar soni oshgani, norasmiy sektordagi ishchi kuchi ulushi kamaygani bu tendensiyaning tasdiqlaydi.



Demografik omillar ham mehnat bozori dinamikasiga ta'sir qiladi: aholi ko'payishi bilan mehnat resurslari ham oshmoqda va bu qo'shimcha ish o'rinlari yaratishni talab qiladi. Shu sababli mahalliyashtirish siyosati va ishlab chiqarishni rivojlantirish chilimlari bu talabni qondirishda strategik vosita bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra, yuqoridagi statistik ma'lumotlar va ularning o'zaro bog'liqligi vaziyatni to'liq aks ettirib, mahalliyashtirish siyosatining bandlik va mehnat bozorini shakllantirishdagi sabab-natija mexanizmini tushunishga yordam beradi.

O'zbekiston mehnat bozoridagi asosiy ko'rsatkichlar (2025-yil)

1-jadval

Ko'rsatkich	Hajmi
Aholi soni	37,8 million kishi
Mehnat resurslari	20,35 million kishi
Iqtisodiy faol populyatsiya	15,57 million kishi
Band aholi	14,81 million kishi
Ishsizlik darajasi	4,9 %
Ishsizlar soni	781,6 ming kishi

2025-yilning birinchi yarmiga oid rasmiy statistik ma'lumotlar O'zbekiston mehnat bozorining holati va rivojlanish tendensiyalarini aniq ko'rsatmoqda (1-jadval). Xususan, ishsizlik darajasi 5,1 % ga tushganligi bu sohadagi muhim o'zgarishlarni tasdiqlaydi: bu ko'rsatkich 2024-yilda 5,8 % atrofida bo'lgan va 2023-yilda 8,1 % ni tashkil etgandi. Pasayish trendining davom etayotgani, mamlakat bandlik siyosatining samaradorligi haqida dalolat beradi. Mehnat resurslari soni 20,35 million kishini tashkil etadi, shundan 15,57 million nafari iqtisodiy faol bo'lib, 14,81 million kishi esa band hisoblanadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, ijodiy faol aholi ichida ishsizlar soni 781,6 ming kishi bo'lib, bu ham avvalgi yillar bilan solishtirganda sezilarli darajada kamaygan.



Bandlik tuzilmasida rasmiy sektorning ulushi oshgani juda muhim omildir. Band aholi tarkibida rasmiy sektorda ishlovchi shaxslar 8 million kishini tashkil etadi, bu umumiy band aholining taxminan 55 % i hisoblanadi. Shu paytgacha rasmiy ish o‘rinlarining nisbati oshib, bu ishchilarga ijtimoiy kafolatlar, mehnat shartnomalari va mehnat huquqlarining himoyalanganligi bilan bog‘liq imkoniyatlar yaratadi. Norasmiy sektor esa 4,8 million kishiga to‘g‘ri kelib, band aholining 33 % ini tashkil qiladi. Norasmiy ishchilar sonining kamayib borayotgani statistik ma’lumotlarda qayd etilgan va bu rasmiy ish o‘rinlarining kengaygani bilan izohlanadi. Shuningdek, 1,8 million nafar O‘zbekiston fuqarosi xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgani ham mehnat bozorining global elementini ochib beradi. Bu holat uy-joy, xizmat va iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash, shuningdek malakali ishchi kuchining xalqaro bozorga chiqishini anglatadi.

O‘zbekiston sanoat sektorida ishlab chiqarish korxonalarida aholi bandligi mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sinh va bandlikni oshirish maqsad qilinmoqda. Rasmiy statistika va hukumat hisobotlariga ko‘ra, 2025-yilning birinchi uch choragida sanoat tarmoqlarida 1 814 ta loyiha doirasida 78 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lib, mahsulotning o‘rtacha 65 % mahalliyashtirilgani qayd etilgan. Bu esa import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ulushini sezilarli darajada oshirgan. Shu loyiha amalga oshirilgani natijasida import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish 6 milliard dollar miqdorida import hajmini kamaytirgan va 9 864 ta yangi ish o‘rni yaratgan. Mahalliyashtirish darajasining oshirilishi sanoat korxonalarida yangi ishchi kuchini jalb qilishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri hissa qo‘shmoqda.

Import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni kengaytirish orqali korxonalar nafaqat ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan ta’minlabgina qolmay, balki ishlab chiqarish zanjirida bandlikni oshirishga ham erishadi. Masalan, bir korxona import



qilinadigan xom ashyo yoki butlovchi qismlarni mahalliyashtirsa, bu to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi tarmoqlarni ham rag'batlantiradi. Bunday holatda korxonada ishlaydigan ishchilarga qo'shimcha ravishda yetkazib beruvchi kichik va o'rta korxonalarda ham ish o'rinlari paydo bo'ladi. Masalan, mahalliy xom ashyo ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish harakatlari bir nechta korxonada allaqachon natija berayotganini ko'rish mumkin. "Olmaliq KMK" kabi yirik sanoat korxonalar tarmog'ida 100 dan ortiq mahsulotni yuqori mahalliyashtirish imkoniyati ko'rib chiqilgan va ularning bir qismi muvaffaqiyatli mahalliyashtirilgan. Bu esa nafaqat korxonada balki uning yetkazib beruvchilar tarmog'ida ham yangi ish o'rinlari paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Rasmiy statistik hisobotlar, masalan 2020-yilda mahalliyashtirish dasturi doirasida tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarilgan 937 ta loyiha bo'yicha 3 718 ta yangi ish o'rni yaratilgani ma'lumotini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich dastlabki yillar bilan solishtirganda ancha oshgan. Bu jarayonni ishchi kuchi kontekstidan tahlil qilganda, import qilinadigan xom ashyo va butlovchi qismlarni mahalliyashtirish nafaqat korxona ichida balki yetkazib beruvchi sanoat zanjirida ham ish o'rinlari yaratadi. Masalan, agar bir sanoat korxonasi yillik 1 000 tonna import xomashyoni mahalliyashtirsa, bu jarayonda ishlab chiqarish liniyasida 100–200 yangi ish o'rni paydo bo'lishi mumkin, shuningdek, yetkazib beruvchi kichik korxonalar tarmog'ida qo'shimcha 50–100 ishchi ish bilan ta'minlanadi. Shu tarzda, sanoat korxonalarida mahalliyashtirishni oshirish orqali nafaqat importga qaramlik kamayadi, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi, doimiy ish o'rinlari yaratiladi, bu esa aholi bandligi ko'rsatkichini yaxshilaydi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston sanoat korxonalari va mehnat bozoridagi holat shuni ko'rsatadiki, mahalliyashtirish siyosati sanoatni rivojlantirish va aholi bandligini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil I yarim yillik holatiga ko'ra,



ishsizlik darajasi 5,1 % ga tushgan, band aholi soni esa 14,6 mln kishini tashkil etadi. Sanoat sektori ishchilari tarkibida rasmiy sektor ulushi 55 % ni tashkil qilgani, norasmiy sektor esa kamayganligi, mehnat bozoridagi barqarorlik va ish o‘rinlarining samarali taqsimlanishini ko‘rsatadi.

Mahalliyashtirish jarayoni import qilinadigan xom ashyo va butlovchi qismlarni ishlab chiqarishda qo‘llanilganda nafaqat korxonalarda yangi ish o‘rinlarini yaratadi, balki yetkazib beruvchi kichik va o‘rta korxonalarda ham ishchi kuchini jalb qiladi. Masalan, bir korxona import qilinadigan xomashyoni mahalliyashtirganda, ishlab chiqarish liniyalarida 100–200 ish o‘rni, yetkazib beruvchilar tarmog‘ida esa qo‘shimcha 50–100 ish o‘rni yaratilishi mumkin. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki aholi bandligini kengaytiradi va importga qaramlikni kamaytiradi.

Shuni inobatga olib, quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Mahalliyashtirish dasturlarini barcha sanoat tarmoqlarida kengaytirish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish.
2. Rasmiy ish o‘rinlarini oshirish orqali bandlikni barqarorlashtirish va ishchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish.
3. Mahalliy yetkazib beruvchi korxonalarni ishlab chiqarish zanjiriga faol jalb qilish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish.
4. Import qilinadigan xom ashyo va materiallar o‘rnini bosuvchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish va modernizatsiya loyihalarini rag‘batlantirish.
5. Mehnat bozoridagi tendensiyalarni doimiy monitoring qilish va tahlil asosida bandlik va ishlab chiqarish strategiyasini takomillashtirish.

Shunday qilib, mahalliyashtirish siyosati sanoatni rivojlantirish, aholi bandligini oshirish va milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlashda strategik vosita ekanligi aniqlandi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 27.09.2024 yildagi O‘RQ-967-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023 yangi tahriri.
<https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
3. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 30.04.2023
<https://lex.uz/docs/-6257288>
4. Stella Tsani, Chrysoula Chitou, Indra Overland, Local content policies: Knowledge stock and future directions for research and policy making in view of the sustainability agenda, Environmental Science & Policy, Volume 162, 2024, ISSN 1462-9011, <https://doi.org/10.1016/j.envsci.2024.103919>
5. Mengqobilov D. O‘ZBEKISTONDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURINING YANGI YO‘NALISHLARI //Journal of universal science research. – 2024. – T. 2. – №. 10. – C. 171-173.
6. Xudayberganova R. T., Adamboyev A. R., Sharipova G. B. O‘ZBEKISTON SANOATINI MAHALLIYLASHTIRISH, MODERNIZATSIYA VA DIVERSIFIKATSIYALASHNING IQTISODIY-GEOGRAFIK JIHAALARI //Экономика и социум. – 2023. – №. 7 (110). – C. 365-370.
7. Bahriddinov V. Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institusional tahlili //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 6.
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.
www.stat.uz
9. Mavludaxon T., Shavkatbek E. O ‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) //Tadqiqotlar. – 2025. – T. 61. – №. 6. – C. 100-105.



10. Shavkatbek E. THE ROLE OF STRATEGICALLY IMPORTANT SECTORS IN THE NATIONAL ECONOMY //Modern education and development. – 2025. – Т. 19. – №. 3. – С. 631-636.
11. Shavkatbek E., Asilbek X. FORMATION AND USE OF LABOR RESOURCES //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 37. – №. 4. – С. 214-218.
12. Anora K., Shavkatbek E. INDICATORS OF LABOR EFFICIENCY //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 37. – №. 4. – С. 181-186.
13. Xushnudxanovna S. O., Shavkatbek E. MAHALLIYLASHTIRISH VA IMPORTNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH //Modern education and development. – 2025. – Т. 40. – №. 4. – С. 90-96.
14. Shavkatbek E. SANOAT ISHLAB CHIQUARISH HAJMI VA MAHALLIY XOM-ASHYO MANBALARINI QO‘LLASH ORQALI KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH TANNARXINI KAMAYTIRISH //Modern education and development. – 2025. – Т. 39. – №. 2. – С. 64-74.
15. Shavkatbek E. et al. YENGIL SANOAT TARMOQLARIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 37. – №. 4. – С. 200-208.